




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalaridan 3,5 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,1 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida -4,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 2,5 martaga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -29,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda -17,0 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2926,6 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,1 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



● Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,2 % ni (2019 yil yanvar-may oylarida - 3,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,4 % (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 9,9 % (10,3 %) va quyi texnologiyalisi - 81,5 % (79,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,4 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,8 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,2 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 7,3 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 80,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,4 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 33,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,7 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	2926,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	729,5	24,9
Ichimliklar ishlab chiqarish	144,4	4,9
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1025,5	35,0
Kiyim ishlab chiqarish	326,3	11,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	37,8	1,3
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	7,3	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	13,5	0,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,5	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	3,3	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	21,2	0,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	88,5	3,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	39,9	1,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	114,5	3,9
Metallurgiya sanoati	15,4	0,5
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	115,3	3,9
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	4,7	0,2
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	112,2	3,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	14,3	0,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	5,1	0,2
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	4,8	0,2
Mebel ishlab chiqarish	33,6	1,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	64,2	2,2
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	1,7	0,2



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-may oylari davomida viloyatda ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 51,9 % ga o'sgan), 54,1 ming tonna un (6,3 %), 10,0 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (62,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	15,4	23,3	7,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	166,8	153,3	-13,5
Vino, ming litr	630,0	236,1	-393,9
Un, ming tonna	50,9	54,1	3,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,2	10,0	3,8

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 483,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,5 martaga oshganligi kuzatildi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s		1 833,4	
Issiqlik energiyasi, ming gkal	39,9	52,1	12,2



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	15,3	18,1	2,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd. so'm	1,7	1,8	0,1
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'mda	7,6	9,1	1,5
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3		-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 18,7 % ga, oqava suvlarni shlami 6,3 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 20,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1743,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 49,5 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,8 % dan 58,3 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 0,3 % (2019-yil yanvar-may oylarida 0,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shaharga to'g'ri kelib, 40,3 % ni, shuningdek, Namangan tumani 15,2 % ni, Uchqo'rg'on tumani 8,7 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,0 % ni hamda Pop tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (94,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (140,8 %), Norin (116,4 %), Uchqo'rg'on (119,2 %), Pop (119,0), Kosonsoy (104,1 %), Chortoq (115,6%), Mingbuloq (131,7), hamda Namangan (100,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	1743,7	100,0	94,2
Namangan shahar	704,9	40,3	83,3
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	28,7	1,6	131,7
Kosonsoy	100,3	5,8	104,1
Namangan t	264,3	15,2	100,1
Norin	31,1	1,8	116,4
Pop	104,6	6,0	119,0
To'raqo'rg'on	121,7	7,0	140,8
Uychi	85,5	4,9	82,7
Uchqo'rg'on	151,4	8,7	119,2
Chortoq	47,4	2,7	115,6
Chust	69,3	4,0	65,9
Yangiqo'rg'on	34,5	2,0	75,1



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 915,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-may <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, % da
Viloyat jami	3523,4	103,1
Namangan shahar	1222,5	92,9
Mingbuloq	119,3	107,9
Kosonsoy	102,4	94,8
Namangan t	370,3	110,5
Norin	155,2	151,7
Pop	194,1	107,6
To'raqo'rg'on	530,2	104,7
Uychi	252,9	95,1
Uchqo'rg'on	344,7	122,2
Chortoq	54,0	103,7
Chust	142,1	113,7
Yangiqo'rg'on	35,7	62,8

Viloyat ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,8 % ulushini), To'raqo'rg'on (15,0 %), Namangan (10,5 %), Uchqo'rg'on (9,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,0 %), Chortoq (1,5 %), Kosonsoy (2,9 %), Mingbuloq (3,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar, Uchqo'rg'on (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 122,2 %), Norin (151,7 %), To'raqo'rg'on (104,7 %), Namangan tumani (110,5 %) hamda Chust (113,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati**
(2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)


Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati indeksi
(2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish To'raqo'rg'on (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 140,8 %), Norin (116,4 %), Uchqo'rg'on (119,2 %), Pop (119,0 %), Kosonsoy (104,1 %), Chortoq (115,6 %), Mingbuloq (131,7 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmning 40,3 % ulushini), Namangan (15,2 %), Uchqo'rg'on (8,7 %), To'raqo'rg'on (7,0 %), Pop tumani (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Mingbuloq (1,6 %) Norin (1,8 %), Yangiqo'rg'on (2,0 %), Chortoq (2,7 %), tumanlariga to'g'ri keladi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili To'raqo'rg'on tumani (2347,9 ming so'm), Namangan tumani (2069,0 ming so'm), Uchqo'rg'on tumanlari (2006,3 ming so'm) handa Namangan shahrida (1947,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1251,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (164,2 ming so'm), Chortoq (271,9 ming so'm), Kosonsoy (490,3 ming so'm), Chust (535,7 ming so'm), Pop (884,9 ming so'm), Mingbuloq (947,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmogda.

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Viloyat jami	1251,0	619,1
Namangan shahar	1416,1	1123,3
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	947,1	227,7
Kosonsoy	490,3	480,4
Namangan t	2069,0	1476,8
Norin	948,9	189,9
Pop	884,9	476,8
To'raqo'rg'on	2347,9	539,0
Uychi	1189,1	402,0
Uchqo'rg'on	2006,3	881,1
Chortoq	271,9	238,4
Chust	535,7	261,1
Yangiqo'rg'on	164,2	158,4


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 619,1 ming so'm bo'lgani holda Namangan tumanida 1476,8 ming so'mni, Namangan shahrida 1123,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 881,1 ming so'mni, tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi buyicha eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (158,4 ming so'm), Norin (189,9 ming so'm), Mingbuloq (227,7 ming so'm), Chortoq (238,4 ming so'm) va Chust (261,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-may oylarida, % da)

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 1396,9 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 39,6 % tashkil etmoqda.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (97,9 %), va Chust (59,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (13,5), Uchqo'rg'on (13,7), Norin (17,6 %), Mingbuloq (24,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5776 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2376 tasi Namangan shahrida, 435 tasi Uychi, 433 tasi Namangan, 425 tasi Chust, 382 tasi Kosonsoy, 382 tasi To'raqo'rg'on, 257 tasi Norin, 254 tasi Uchqo'rg'on, 239 tasi Yangiqo'rg'on, 227 tasi Chortoq, 225 tasi Pop, va 141 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.



2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 575 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 57,7 % Namangan shahri, Uychi, Namangan va To'raqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80